


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.I.Obidjanov	
Laboratoriya mashg'ulotlarining biologiya fanini o'zlashtirishga ta'siri.....	96
M.A.Abduxalilova	
O'quvchilarida ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirish	100
M.A.Mamasaidova, M.X.Akbaraliyeva	
Boshlang'ich ta'lrim o'quvchilariga ko'paytirish amalini o'rgatishning interfaol usullari	107
G.S.Qosimova	
Tibbiy ta'limga matematik modellashtirish orqali organizmning funksional holatlari va himoya-moslashuv jarayonlarini o'qitish usullari.....	112
S.R.Toshboyeva, L.A.Yusupova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kombinatorika elementlarini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar	117
A.A.Мирзалиев	
Пути повышения эффективности системы морально-психологической подготовки и теоретическая модель ее организации.....	121
A.T.Akbarov	
Basketbolning jismoniy rivojlanish va salomatlikni mustahkamlashdagi muhim roli	127
S.M.Sidiqov	
Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish	132
Z.N.Usmonov	
Jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiysi jarayonini rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.....	137
S.T.Xakimov, N.B.Komilova	
Umumiylar ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish (basketbol sport turi misolida)	142
X.T.Xasanov	
Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi xususiyatlari	147
G.K.Yakubova	
Turli yoshdagagi odamlarning har hil sharoit va hududlarda nafas olishini tahlil qilish.....	153
T.T.Yusupov	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun gimnastika mashqlari majmuuni tuzish va uni o'tkazishga qo'yiladigan talablar	158
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixi bo'yicha bilimlarni shakllantirishning pedagogik jihatlari	164
A.M.Maxmutaliyev	
Umumta'lim maktabining boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoasi faoliyatida innovasiyalar.....	168
D.E.Yuldasheva	
Bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyasi	173
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik imoniylatlari	178
D.E.Yuldasheva	
Bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv modeli	182
L.E.Bobomurodova	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ma'naviy va kasbiy sifatlariga qo'yilgan talablar	189
G.O'.Yuldasheva	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish: komponentlar va ularning ahamiyati.....	194
E.K.Muxtarov	
Kvant mexanikasi fanidan amaliy darslarda masalalarni yechishning metodik jihatlari	194



УО'К: 37.016:57.082

**LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINING BIOLOGIYA FANINI O'ZLASHTIRISHGA
TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ НА УСВОЕНИЕ ДИСЦИПЛИНЫ
«БИОЛОГИЯ»**

**THE INFLUENCE OF LABORATORY CLASSES ON THE LEARNING OF THE
DISCIPLINE "BIOLOGY"**

Obidjanov Umid Isojonovich 

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi mudiri

Annotatsiya

Mazkur maqolada laboratoriya mashg'ulotlarining talabalarning biologiya fanini o'zlashtirish darajasiga ta'siri o'rjanilgan. Tadqiqot davomida laboratoriya mashg'ulotlarining nazariy bilimlarni chuqurroq anglashga, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga va fanni yanada qiziqarli qilishga yordam berishi tahvil qilindi. Tadqiqot natijalari laboratoriya mashg'ulotlarini muntazam va innovatsion metodlar asosida tashkil etish biologiya fani o'zlashtirilishini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatdi.

Аннотация

В данной статье изучено влияние лабораторных занятий на уровень освоения студентами биологических дисциплин. В ходе исследования было проанализировано, как лабораторные занятия помогают глубже понять теоретические знания, развить практические навыки и сделать науку более увлекательной. Результаты исследования показали, что организация лабораторных занятий на основе систематических и инновационных методов значительно улучшает овладение биологической наукой.

Abstract

This article examines the impact of laboratory classes on the level of students' mastery of biological disciplines. The study analyzed how laboratory classes help to better understand theoretical knowledge, develop practical skills and make science more exciting. The results of the study showed that the organization of laboratory classes based on systematic and innovative methods significantly improves the mastery of biological science.

Kalit so'zlar: laboratoriya mashg'ulotlari, biologiya fani, ta'lif metodikasi, amaliy bilim, eksperimental o'rjanish.

Ключевые слова: лабораторные занятия, биология, методика обучения, практические знания, экспериментальное изучение.

Key words: laboratory sessions, biology, teaching methodology, practical knowledge, experimental learning.

KIRISH

Biologiya fani tabiiy fanlar orasida o'zining murakkabligi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu fan nafaqat nazariy bilimlarni o'z ichiga oladi, balki eksperimental tadqiqotlar orqali atrof-muhit, tirik organizmlar va ularning o'zaro bog'liqligini tushunish imkonini beradi. Shu sababli biologiya ta'liming ajralmas qismi sifatida laboratoriya mashg'ulotlari talabalar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

XXI asrda ta'lif tizimida chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Zamonaviy o'quvchilar passiv tinglovchilardan faol o'rjanish ishtiroychilariga aylanishmoqda. Shu sababli interaktiv va amaliy ta'lif metodlariga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Biologiya fanida esa aynan laboratoriya mashg'ulotlari ushbu ehtiyojni qondiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Laboratoriya mashg'ulotlari talabalar uchun quyidagi jihatlarda foydalidir:

1. Nazariy bilimlarni mustahkamlash – talabalar dars davomida o'rgangan tushunchalarni amaliyotda ko'rish va sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar.

2. Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish – ilmiy tajribalar orqali talabalarning ilmiy-ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

3. Mustaqil izlanish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida talabalar eksperimentlarni rejalashtirish, natijalarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarishni o'rjanadilar.

4. Jamoaviy ishslash ko'nikmalarini oshirish – eksperimental faoliyat ko'pincha guruh bo'lib bajariladi, bu esa talabalar o'tasida hamkorlik va muloqotni rivojlantiradi.

Ushbu tadqiqot laboratoriya mashg'ulotlarining biologiya fanini o'zlashtirish jarayoniga ta'sirini baholashga qaratilgan bo'lib, an'anaviy nazariy ta'lif bilan taqqoslash orqali uning samaradorligi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Biologiya ta'lrimda laboratoriya mashg'ulotlarining o'rni va ahamiyati ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xorijiy va mahalliy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi quyidagi muhim jihatlar bilan bog'liq:

- Eksperimental yondashuv orqali o'rganish – Piaget (1950) tomonidan ilgari surilgan *konstruktivistik ta'lif nazariyasiga* ko'ra, talabalar yangi bilimlarni avvalgi tajribalari bilan bog'lagan holda o'zlashtiradilar. Laboratoriya mashg'ulotlari esa aynan shu jarayonga mos keladi.

- Interaktiv ta'lif metodlarining samaradorligi – Jon Dewey (1938) ta'kidlaganidek, o'quv jarayoni amaliyot bilan bog'liq bo'lsa, talabalar ancha samarali o'rjanadilar.

- STEM (Science, Technology, Engineering, and Mathematics) metodikasining biologiya ta'limga integratsiyasi – D. Roberts (2017) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar laboratoriya mashg'ulotlarining fanni tushunish darajasini 30-40% ga oshirishini ko'rsatgan.

Biologiya fanini o'qitish bo'yicha milliy tadqiqotlar ham laboratoriya mashg'ulotlarining samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, O'zbekiston olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda laboratoriya darslari o'quvchilarning mustaqil ishslash, ilmiy izlanish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan (Xolmirzaev, 2021).

Ushbu tadqiqot eksperimental tadqiqot metodiga asoslangan bo'lib, biologiya fanini turli usullar orqali o'rgangan talabalar natijalari taqqoslandi.

Tadqiqot dizayni sifatida eksperimental guruh (50 talaba) – laboratoriya mashg'ulotlari orqali ta'lif oldi. Nazorat guruh (50 talaba) – faqat an'anaviy nazariy darslar asosida o'qitildi.

Ma'lumotlarni yig'ish metodlari:

- Test sinovlari – fan bo'yicha o'zlashtirish darajasini baholash uchun.
- So'rovnomalar – talabalar motivatsiyasi va laboratoriya mashg'ulotlariga bo'lgan munosabatini aniqlash uchun.

- Kuzatuvalar – talabalar ishtiropi va faoliyati monitoring qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Laboratoriya mashg'ulotlarining biologiya fanini o'zlashtirishga ta'sirini baholash maqsadida turli metodlardan foydalanildi. Ushbu bo'limda eksperimental va nazorat guruhlarining o'zlashtirish darajalari, talabalar motivatsiyasi, amaliy mashg'ulotlarning o'quv jarayoniga qo'shgan hissasi va ularning ta'lif samaradorligiga ta'siri bo'yicha batafsil tahlil keltiriladi.

1. Test natijalari tahlili

Tadqiqotning asosiy ko'rsatkichlaridan biri test natijalari bo'lib, ular talabalar tomonidan fan bo'yicha o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam berdi.

1-jadval

Tadqiqot ko'rsatgich natijalari¹

Guruh	O'rtacha natija (%)	Eng yuqori natija (%)	Eng past natija (%)
Eksperimental guruh (laboratoriya mashg'ulotlari bilan)	85	96	72
Nazorat guruh (faqat nazariy darslar bilan)	65	80	50

Tahlil shuni ko'rsatadiki, eksperimental guruhdagi talabalar nazorat guruhiga qaraganda 20% yuqori natija ko'rsatdi. Eng past natija eksperimental guruhda 72% ni tashkil qilgan bo'lsa, nazorat

¹ Muallif ishlanmasi

guruhibda bu ko'rsatkich 50% ga teng bo'ldi. Eng yuqori natijalar esa laboratoriya mashg'ulotlari asosida ta'lif olgan talabalar orasida ancha yuqori bo'lib, 96% ga yetdi.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, laboratoriya mashg'ulotlari orqali o'qigan talabalar mavzuni yaxshiroq o'zlashtirgan hamda ilmiy tushunchalarni chuqurroq anglagan.

2. So'rov nomalari va talabalar motivatsiyasi

Laboratoriya mashg'ulotlarining ta'lif jarayoniga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun talabalar o'rtaida so'rov nomalari o'tkazildi. So'rov nomalari 100 nafar talaba ishtirokida tashkil etildi va quyidagi savollarga javob olindi:

2-jadval

Respondentlar o'rtaida savollar natijalari²

Savollar	Ha (%)	Yo'q (%)	Ikki tomonlama (%)
Laboratoriya mashg'ulotlari fan bo'yicha qiziqishingizni oshirdimi?	90	5	5
Nazariy bilimlaringizni yaxshiroq tushunishingizga yordam berdimi?	85	7	8
Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berdimi?	88	6	6
O'z bilimlaringizni boshqalarga tushuntirishda osonlik yaratdimi?	82	10	8
Laboratoriya ishlarining sonini oshirishni xohlaysizmi?	93	3	4

O'tkazilgan yangi so'rov natijalarini quyidagilarni dalolat bermoqda 90% talabalar laboratoriya mashg'ulotlari ularning biologiya faniga bo'lgan qiziqishini oshirishini tasdiqladi. 85% talabalar amaliy tajribalar orqali nazariy bilimlarni yaxshiroq tushunganini bildirdi. 88% talabalar laboratoriya ishlarining amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ekanligini e'tirof etdi. 93% talabalar laboratoriya mashg'ulotlarining sonini oshirish zarur deb hisoblaydi.

Ushbu natijalar amaliy ta'lif usullarining motivatsiyasi va o'quv jarayonidagi rolini aniq ko'rsatmoqda. Talabalar laboratoriya mashg'ulotlarini foydali deb hisoblab, ularni ko'proq o'tkazish kerakligini ta'kidlagan.

Kuzatuv davomida talabalar laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida qanday ishtirok etayotgani tahlil qilindi. Ushbu natijalar darslarda talabalar faoliyatining oshganligini ko'rsatadi:

1. Eksperimental guruhdagi talabalar o'qituvchi ko'rsatmalariga faol javob berib, tajribalarni mustaqil bajarishga harakat qilishdi.

2. O'zaro muloqot va hamkorlik nazorat guruhiga qaraganda eksperimental guruhdada ancha yuqori bo'ldi.

3. Eksperimental jarayonlar davomida talabalar ilmiy kuzatish olib borish, xulosa chiqarish va natjalarni qayd etish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ldi.

Bu esa laboratoriya mashg'ulotlarining o'quvchilarining faolligini oshirish va ta'lif jarayoniga ijobjiy ta'sir qilishini tasdiqlaydi.

4. Muhokama

O'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilganda quyidagi muhim xulosalar kelib chiqadi:

- Laboratoriya mashg'ulotlari orqali o'qigan talabalar an'anaviy ta'lif olgan talabalar bilan taqqoslaganda 20% yuqori natija ko'rsatdi.

- Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilar motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar laboratoriya ishlarini ko'proq o'tkazishni xohlashini bildirgan.

- Eksperimental jarayonlar tanqidiy fikrlash va ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

- Tahliliy va mustaqil fikrlash qobiliyatining o'sishi kuzatildi, chunki talabalar laboratoriya mashg'ulotlari davomida natjalarni mustaqil tahlil qila boshlashdi.

Ushbu tadqiqot natijalarini xalqaro tadqiqotlar bilan hamohang bo'lib, zamonaviy STEM yondashuvlari, tajriba asosida o'qitish va faol ta'lif metodlarining samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, laboratoriya mashg'ulotlari interaktiv ta'lif jarayonini shakllantiradi va talabalarni fan bo'yicha chuqurroq bilim olishga undaydi.

² Muallif ishlansasi

PEDAGOGIKA

Natijalarga asoslanib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Laboratoriya mashg'ulotlari sonini oshirish, ayniqsa, maktab va universitet darajasida ilg'or eksperimental metodlarni joriy etish.
- Virtual laboratoriylar va simulyatsiyalardan foydalanish, bu ayniqsa, tajriba o'tkazish uchun maxsus jihozlar yetishmovchiligi mavjud hududlarda muhim hisoblanadi.
- Amaliy ta'lif dasturlarini rivojlantirish, biologiya fanida interaktiv laboratoriya darslari uchun qo'llanma va metodik materiallar yaratish.
- Talabalar o'tasida jamoaviy loyiha va tadqiqot ishlarini kengaytirish, bu ularning mustaqil ilmiy izlanishlariga asos yaratadi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot laboratoriya mashg'ulotlarining biologiya fanini o'zlashtirishga ta'sirini o'rghanishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, laboratoriya mashg'ulotlari talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va fanni yanada qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi.

Laboratoriya mashg'ulotlari yordamida ta'lif olgan talabalar nazorat guruhidagi talabalar bilan solishtirilganda 20% ga yuqori natijalar ko'rsatdi. Shuningdek, talabalar so'rovnomalari shuni ko'rsatdiki, 90% dan ortiq ishtiroychilar amaliy mashg'ulotlarning ularning fan bo'yicha qiziqishini oshirganini tasdiqlagan. Bu esa eksperimental metodikaning ta'lif jarayonidagi samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, laboratoriya mashg'ulotlari faqatgina talabalarning bilim olish jarayoniga emas, balki ularning mustaqil tahlil qilish, muammolarni hal qilish va ilmiy izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bunday mashg'ulotlar talabalar o'tasida jamoaviy ishlash va ilmiy muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuningdek, biologiya ta'limalda zamnaviy laboratoriya usullaridan foydalanishning ahamiyatini tasdiqladi. Zamnaviy texnologiyalar va innovatsion usullar orqali tashkil etilgan laboratoriya mashg'ulotlari talabalar tomonidan yaxshiroq qabul qilinib, o'zlashtirish darajasi yuqoriq bo'lishiga olib keldi.

Yuqorida ma'lumotlar asosida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

1. Laboratoriya mashg'ulotlarining sonini oshirish – talabalarning amaliy tajribalarni ko'proq o'tkazish imkoniyatini yaratish zarur.
2. Virtual laboratoriylar va interaktiv simulyatsiyalardan foydalanish – ayniqsa, jihozlar yetishmovchiligi mavjud hududlarda innovatsion texnologiyalar yordamida tajribalarni o'tkazish zarur.
3. STEM metodikasi asosida laboratoriya mashg'ulotlarini takomillashtirish – biologiya fanini o'qitishda texnologiya va muhandislik yondashuvlarini integratsiya qilish samarali bo'lishi mumkin.
4. Talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish – laboratoriya mashg'ulotlarini nazariy va amaliy tadqiqot ishlari bilan bog'lash talabalar qiziqishini oshiradi.
5. Jamoaviy laboratoriya ishlari tashkil etish – guruhda ishlash orqali talabalar bir-birlari bilan tajriba almashishlari va o'z fikrlarini ifodalashni o'rganishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, laboratoriya mashg'ulotlari nafaqat biologiya fanini o'zlashtirishni yaxshilaydi, balki talabalarni kelajakdagagi ilmiy faoliyatga tayyorlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion va interaktiv laboratoriya mashg'ulotlarini keng joriy etish biologiya ta'limalining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith, J. (2020). *Innovative Approaches to Biology Education*. Oxford University Press.
2. Jones, L., & Brown, M. (2019). *Experimental Learning in Science Education*. Cambridge University Press.
3. Xolmirzaev, Sh. (2021). "Biologiya ta'limalda laboratoriya mashg'ulotlarining o'rni". *O'zbekiston ta'lim va fan jurnali*, 5(3), 45-52.
4. Miller, D. (2018). *Hands-on Learning and Student Engagement in Biology*. Springer.
5. Karimov, O. (2022). "Zamnaviy biologiya ta'limalda interaktiv metodlar". *Fan va innovatsiya jurnali*, 10(2), 78-85.